

Andijon Qishloq xo'jaligi instuti

REFARAT

Mavzu: "Avesto"-tarixiy manba sifatida

Tekshirdi: **Tursunov B**

Bajardi: **KPT 1 Sheraliyev Husniddin**



Mavzu: “Avesto” – tarixiy manba sifatida

Reja:

- 1. Zardushtiylikning paydo bo`lishi.*
- 2. Avestoning muqaddas yozuvi.*
- 3. Avestodagi real, dunyoviy qadriyatlar.*
- 4. "Avesto" va qadimiy dehqonchilik an`analari xususida ayrim mulohazalar.*



“Avesto” ayni zamonda bu qadim o`lkada buyuk davlat, buyuk ma`naviyat, buyuk madaniyat bo`lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi1.

Islom Karimov

"Avesto" – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Zardushtlik e`tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu ta`limotdan boshlangan. Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi. "Avesto"da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, uning Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asosda uning vatani Xorazmdir degan qarash mavjud.

"Avesto" oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda datslab to`qqiz ho`kiz terisiga yozilgan. Ilk nusxalari asosida sosoniylar (mil. ol. 7-3 asr) davrida 21 kitob holidi yig`ilgan, bizgacha ularning chorak qismi yetib kelgan. Tiklangan matnga "Zand" nomi bilan sharhlar bitilgan. "Avesto" to`rt qismdan iborat: Yasna ("Diniy marosimlar"), Yasht (ma`no jihatdan Yasnaga yaqin), Visparad ("Barcha ilohlar haqidagi kitob"), Vendidad ("Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi"). Yasna

tarkibiga kirgan madhlar "Gatlar" (ayrim manbalarda "gohlar") deb nomlanib, ularni Zardutsning o`zi yozgan deb taxmin qilinadi. Gatlar tarkibida Jamshid (Yima), Gershasp, Afrosiyob (Alp Er To`nga) kabi afsonaviy qahramonlar hayoti lavhalari uchraydi. "Avesto" insoniyat sivilizatsiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining e`tiborini tortgan. U haqda F.Nitsshe, F. Shpigel, A. Mayllet, V. Bartold, E. Bertels, Yan Ripka, O.Makovelskiy, I. Braginskiy v.b. xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud. O`zbekistonda "Avesto"ni o`rganish qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Jafar Tabariy, Abu Baxr Narshaxiy asarlarida "Avesto" ta`limotiga va unda tilga olingan timsollarga murojaat mavjud. Bu nodir ilmiy asarlarning qo`lyozma va bosma nusxalari O`R FA SHI jamg`armasida saqlanadi. Hozirgi o`zbek olimlari A.Qayumov, H. Homidov, M. Isoqov, N. Rahmonov v.b.ning ilmiy tadqiqot va maqolalari e`tiborli. O`zbekiston Respublikasi hukumatning qarori bilan 2001 yilda "Avesto"ning 2700 yilligi nishonlandi. "Avesto" vatani Xorazmda bog` barpo qilindi, asarning o`zbek tilidagi tarjimalari chop etildi, u haqda yangi tadqiqotlar yuzaga chiqdi.

1. ZARDUSHTIYLIKNING PAYDO BO`LISHI.

Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan bo`lib, bu din er.avval VII-VI asrlarda dastavval O`rta Osiyoda-Xorazm vohasida paydo bo`lgan. Uning payg`ambari Zardusht tarixiy shaxs edi. U mazdakiylik dinini isloh qilib, uning asosida yangi yakka xudolik dinini ijod etgan.

Zardushtiylik paydo bo`lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya`ni quldorlik davri endi paydo bo`layotgan davr edi. U urug`-qabilachilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quldorlarga, zolim va mazlumlarga bo`linayotgan davr bo`lgan. Bu din eng avval O`rta Osiyo, so`ng Eron, Ozarbayjonda qaror topgan edi.

I.A.Karimov «O`z kelajagimizni o`z qo`limiz bilan qurmoqdamiz» degan asarida biz o`zbek xalqi mansub bo`lgan xalqning tarixi g`oyat uzun, beqiyos, betakror ekanini ta`kidlab. bunday degan edilar: «Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo`lgan xalq emasmiz, bizning millatimiz

xalqimiz ko`hna Xorazm zaminida «Avesto» paydo bo`lgan zamonlardan beri o`z hayoti, o`z madaniyati, o`z tarixi bilan yashab keladi»²

Butun O`rta Osiyo moddiy va ma`naviy madaniyatining beshigi Xorazm vohasi va u yerda yashagan turkiy elatlar bo`lgan, shulardan o`zbek elati tashkil topgan.

I.A.Karimov juda o`rinli qayd qilganidek, «Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz». Bu o`rinda birinchi davlat tashkil topgandan keyingi «yozma tarix» nazarda tutilgan. Yunon, Xitoy tarixchi sayyohlari o`z xotiralarida yozib qoldirgan keyin Zardushtiylik yozuvlarida berilgan tarix nazarda tutilgan.

Xorazmda o`troq hayot undan ham birmuncha oldin yuzaga kelgan, davlat uning mahsuli tarzida tashkil topgan. Bu haqda bundan tahminan 3 ming yil avval yaratilgan «Avesto»ning qo`lyozmasi binobarin yozma tarixning ilk debochasi ishonchli dalolat bergan. «Bu nodir kitob, deb yozgan edilar, I.A.Karimov, bundan XXX asrlar muqaddam ikkidaryo oralig`ida mana shu muqaddas zamin umrguzorlik qilgan ajdodlarimizni biz avlodlarga qoldirgan ma`naviy, tarixiy merosidir»³. Yurtboshimiz «Avesto» Xorazmdek qadimiy o`lkada buyuk davlat, boy ma`naviyat qimmatli madaniyat bo`lganligini hech kim inkor eta olmasligini ham ta`kidlagan.

Xulosa shuki, Zardushtiylik eradan avvalgi 7-6 asrlarga xos bo`lgan din sifatida undan oldingi urug` qabilachilik dinlari negizida paydo bo`lgan yakka xudolik dini bo`lgan. U to 7-9 asrlargacha turli shaklda davom etib, so`ng o`rnini islom egalladi. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, yaqin va o`rta Sharqqacha tarqalib, ayrim qoldiqlari haligacha saqlanib kelmoqda.

Vujudga kelishi. Zardushtiylik mil. av. III-II ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan dindir. Zardushtiylik vahy orqali e`lon qilingan jahon dinlarining eng qadimiysidir. U insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko`p ta`sir o`tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi utsidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta

birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor shu din doirasida fikr yuritildi. Keyingi asrlarda bu g'oyalar yahudiylik, xritsianlik va boshqa dinlar tarafidan o'zlashtirildi. Aytib o'tish joizki, ushbu din paydo bo'lgan davr va uning vatani – hali fanda oxirigacha to'liq yechilgan masalalar emas. Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish Avestoda «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi talqin etiladi. Zardushtiylik yana «Behdin», ya'ni «Eng yaxshi din» deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Axura» qo'shilib, zardushtiylikning ilohiyati – Axura-Mazda nomi paydo bo'lgan. Bu – «Janob Mazda» yoki «Iloh» demakdir. Zardusht nomi tadqiqotlarda Zaratushra, Zarduts, Zoroatsr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilsalar, boshqalar afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u taxminan mil. av. 1200-570 yillar orasida yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Tadqiqotchi M. Boys ta'kidlashicha, u mil. av. 1500-1200 yillar orasida yashagan. Zardusht Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan ko'pxudolikka negizlangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloh qilib, yangi dinga asos soldi. Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi xususida ikki xil qarash bor. Birinchisi – «G'arb nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra Midiya (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdorlarining dalili shuki, birinchidan, zardushtiylikning qadimiy Eron hududlarida keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoga keyin yozilgan sharhlarning qadimiy eron-pahlaviy tilida bo'lganligidir. E'tibordan chiqarmaslik kerakki, zardushtiylik uch buyuk Eron imperiyasi – Ahamoniylar, Arshakiylar va

Sosoniylar davrlarida, ya`ni mil. av. XI asrdan to mil. XII asrigacha ketma-ket aynan Yaqin va O`rta Sharqda davlat dini maqomida bo`lgan. Ikkinchisi, «Sharq nazariyasi» bo`lib, unga ko`ra, Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi. Ko`pchilik manbashunoslar ikkinchi nazariya tarafdorlaridirlar. Xorazm zardushtiylikning muqaddas olovi Ozarxurra birinchi bor yoqilgan va eng buyuk xudo – Axura-Mazdaning Zardusht bilan bog`langan joyi hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi Avestoda: «Birinchi bor muqaddas olov – «Ozarxurra» «Airyanem-Vayeja» (ba`zi manbalarda – «Yeran-vej»)da yoqildi», deyiladi. «Airyanem-Vayeja»ning geografik va iqlimiy tavsifi Xorazmnikiga to`g`ri keladi. Avestoda Axura-Mazda tomonidan yaratilgan «Barakot va najot» sohibi bo`lgan bir qator mamlakatlar zikr etiladi va ularning eng birinchisi, «dunyoda hech narsa chiroyiga teng kela olmas Airyanem-Vayeja», keyin esa «odamlar va chorva podalariga mo`l» Sug`d (So`g`d), «qudratli va muqaddas» Mouru (Marv), «baland ko`tarilgan bayroqlar mamlakati» Baxdi (Baqtriya) zikr etiladi.

Zardushtiylik ta`limoti. Zardushtiylik ta`limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo`lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e`tiqodlarga (Markaziy Osiyo qadimgi aholisining «yeski dini»ga) nisbatan monoteistik ta`limotdir. U behuda qon to`kuvchi qurbonliklar, harbiy to`qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o`troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug`ullanishga da`vat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo`riq yer ochib, uni bog`u rog`ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi. Aksincha, bog`lar, ekinzorlarni, sug`orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladilar. Zardusht insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o`rgatmoqchi bo`ladi. Bunga ko`ra insonning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo`lajak, har bir inson o`lgandan so`ng o`zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha abadiy rohat – jannatga, yoki yomon ishlari

ko`p bo`lsa na xursandlik va na xafalik ko`rmaydigan arosat joy – misvongatuga tushadi. Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgani turadi: yaxshilik va yomonlik, yorug`lik va qorong`ulik, hayot va o`lim o`rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axura-Mazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu (yoki Axriman) ifodalaydi. Axura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi. Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofliqi, so`zning sobitligi, amallarning insoniyliqi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab, sig`inishi shart. Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to`rt unsur – suv, olov, yer va havo ulug`lanadi. Zardushtiylik dafn marosimi o`ziga xos bo`lib, o`lganlar bir necha pats, baland «sukut minoralari» – daxmalarga solinadi, u yerda murdalarning go`shtlarini qushlar yeb, suyaklarini tozalaydi. Go`shtdan tozalangan suyaklar maxsus sopol idishlarga solinib minora o`rtasidagi quduqqa sohib yuboriladi. Bunda poklik bilan nopoklikning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi. Zardushtiylik dini dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri hisoblanib, mil. av. XII-XI asrlarda Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Kichik Osiyo xalqlari unga e`tiqod qilganlar. Eronda Sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida uning muqaddas kitobi Avesto ruhoniylar tomonidan og`zaki rivoyatdan yig`ilib, birinchi marta kitob shakliga keltirilgan. Ayrim qismlariga, ayniqsa «Videvdat» bo`limiga o`zgartirishlar kiritilib, qayta ishlangan. VIII asrda O`rta Osiyoga islom dini kirib kelib, keng tarqalguniga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan. Buni, jumladan, arxeologik tadqiqotlar isbotlaydi. Hozirgi kunda zardushtiylikka e`tiqod qiluvchi diniy jamoalar mavjud. Ular Hindistonning Mumbay (Bombey, G`ujarat shtatlarida; 115 ming kishiga yaqin), Pokiston, Shri Lanka, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH, Avsraliya va Eronning (Tehronda 19 ming kishidan ortiq) ba`zi chekka viloyatlarida saqlanib qolgan. Eron Islom Respublikasida

zardushtiylik diniga e`tiqod qilish qonun tomonidan ruxsat etilgan. Mumbayda zardushtiylarning madaniy markazi Koma nomidagi insitut faoliyat olib boradi. Undan tashqari Mumbayda homiy Dxalla raisligida dunyo zardushtiylari madaniyati fondi ishlab turibdi. 1960 yilda zardushtiylarning I umumjahon kongressi Tehronda o`tkazildi. Keyingi kongresslar Boybeyda o`tkazildi.

2. AVESTONING MUQADDAS YOZUVI.

Avesto dingina emas, dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar, o`zi tarqalgan o`lkalar, elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy va ma`naviy qarashlari, diniy e`tiqodlari, urf-odatlar haqidagi manbalardandir. Unda bayon etilgan asosiy g`oya diniy e`tiqodning ilk sodda bilimlari Zardusht nomli payg`ambar nomi bilan bog`langan. U Avestoning eng qadimiy qismi «Gat» (xat – noma)ni ijod etgan. Avesto tarkibiga kirgan bilim, ma`lumotlar qariyb 2000 yil miloddan avval 3000 yillik ohirlari 2000 yillik boshlaridan to milodning boshlarigacha o`tgan davrda yuzaga kelib, avloddan-avlodga og`zaki ko`chirib olingan, uning ko`p qismi yo`qolgan, yettidan bir qismi saqlangan. Miloddan avvalgi 3 asrda Arshakiylar sulolasi davrida to`plangan.

Dinshunoslikda Avesto uch tarixiy qatlamga ajratilgan: 1. Eng qadimiy qismi miloddan avvalgi 3 ming yillikda vujudga kelgan Yashtlardir; ularda urug`chilik tuzumidagi e`tiqodlar, ko`p xudolik tasavvurlari tasvirlangan; 2. Gatlar deb atalgan qismidir. Bunda Ahuramazda nomli xudo haqida uydirmalar yozilgan. Uni zardusht yozgan deb tahmin qilinadi. 3. Qadimiy ko`pxudolik va keyingi yakkaxudolik g`oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan avvalgi V-asrda har ikkisini kelishtirgan Mazdakiylik dini shakllangan. Avesto bu dinning oxirgi va asosiy qismini tashkil etdi.

Hozirgi dinshunoslikka xos bo`lgan Avestoning 6 asrlarda Eronda hukmronlik qilgan Sosoniylar sulolasi shohi Xisrav I hukmronligi davrida yozib tugatilgan, keyinchalik pahlaviy tiliga tarjima qilinib asosiy tekstiga ko`plab sharhlar berilgan. Bular «Zend» nomi bilan ma`lum.

Avesto oldin 12 ming mol terisiga yozilib, xajmi g`oyat katta bo`lgani uchun undan foydalanish osonlashtirish niyatida «kichik avesto» yaratildi. (Beruniy).

7 asrda Sosoniylar davlati parchalanib, arab bosqinchilari, Eron va O`rta Osiyoni bosib olgach, Zardushtiylik ham zarbalarga uchrab, unga ishonuvchilar quvg`in va ta`qib ostiga olingach Avestoning aksariyat beshdan uch qismi yo`qolgan va unitilgan. Avestoda bu dinning diniy- falsafiy tizimining qoida dasturlari bayon etilgan. U qadimiy ajdodlarimizni dunyoqarash, huquqiy, axloqiy, tamoyil qoidalarini o`z doirasiga olgan. Unda tabiat falsafasi, kosmogoniya, tarix, etika, mediöinaga doir materiallar, bilimlar yozilgan. Yana unda shoh, oliy tabaqa, quldor, qul, dindorlar va diniy urf-odatlar katta o`rin olgan. Hokim va zolimlar ulug`langan; ruhoniylar muqaddas odamlarni hamma hurmat qilishi kerak deb da`vo qilingan.

Xulosa shuki, Avesto Zardushtiylikning muqaddas yozuvi hisoblangan, 2000 yil davomida yaratilgan 5 dan 3 qismi yo`qolib ketgan u yakka hudolikni targ`ib etgan, olovga sig`inmaslik, faqat uni asrash va e`zozlashni tavsiya etgan.

Avesto zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. U Apatsak, Ovitso, Ovutso, Avesto, Avatso kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. Avesto O`rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to`g`risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma`naviy madaniyatini o`rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og`zaki tarzda uzatilib kelingan. Zardushtiylik dini rasmiy tus olguniga qadar Avestoning bo`laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida tarqalgan. Ushbu – Axura-Mazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlar deb hisoblangan bo`laklar turli diniy duolar, madhiyalar sifatida yig`ila boshlangan. Bular Zardushtning o`limidan keyin kitob holida jamlangan va «Avesto» – «O`rnatilgan, qat`iy

qilib belgilangan qonun-qoidalar» deb nom olgan. Bu qadimiy yozma manba bizgacha to`liq holda yetib kelmagan. Avesto haqida Abu Rayhon Beruniy (v. 1048 y.) shunday yozadi: «Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida [Avestoning] 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o`ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o`sha vaqtda Avestoning beshdan uchi yo`qolib ketdi». Avestoning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Gretsiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborgani, 12 ming qoramol terisidagi tillo matn haqida (at-Tabariyda – 12000 pergament) keyingi davrlarda yaratilgan zardushtiylik adabiyotida («Bundahishn», «Shahrihoi Eron», «Dinkard»; IX asr, «Arda Viraf-namak»; IX asr, «Tansar xatlari», al-Mas`udiyning «Muruj az-zahab», «Fors-noma» va boshqalarda) ma`lumotlar bor. Bu asarlarda yunonlar otashxonalarini vayron qilganlari, ibodatxonalar boyliklarini talon-taroj etganlari, din arboblarni o`ldirib, asir olib ketganliklari haqida yoziladi. Hozir bizgacha yetib kelgan Avesto, Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi xolos. U «Avesto 30 «nask» edi, majusiylar (zardushtiyalar) qo`lida 12 nask chamasi qoldi» deb yozgan. Yozma manbalarga ko`ra, haqiqatan ham Avestoni mo`badlar avloddan-avlodga, og`izdan-og`izga olib o`tib, asrlar osha saqlaganlar. Buning sababi mo`badlar mag`lub xalqlar (Yaqin va Sharq xalqlari) yozuvini harom hisoblab, muqaddasxabarni unda ifodalashga uzoq vaqt jur`at etmaganlar. Dastavval (mil. II yoki III asrlarida), Arshakiylar davrida Avesto qismlarini to`plash boshlangan. Keyinchalik, Sosoniy Ardasher Popakon (227-243) davrida, ayniqsa, Shopur (243-273) davrida atsrologiya, tabobat, riyoziyot va falsafaga oid qismlari yozib olinib, hamma qismlari tartibga keltirilgan, so`ng bu asosiy matn to`ldirib borilgan. Avestoning ana shu to`ldirilgan nusxasining ikki to`liq qo`lyozmasi Hinditsonda saqlanadi – biri Mumbayda, zardushtiyalarning madaniy markazi bo`lmish Koma nomidagi insitutda, ikkinchisi – Kalkuttadagi davlat kutubxonasida. Avestoning eng

qadimiy qismlarida Zardusht tug`ilgan va o`z faoliyatini boshlagan yurt haqida ma`lumot berilgan. Unda aytilishicha, «bu mamlakatning ko`p sonli lashkarlarini botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog`lari bor, yaylov va suvlari bilan go`zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, suvga mo`l, chuqur ko`llari, keng qirg`oqli va kema yurar daryolari o`z to`lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xarayva (Areya), Gava (so`g`dlar yashaydigan yurt), Xvarazm (Xorazm) mamlakatlari tomon eltuvchi daryolari bor». Shubhasiz, «keng qirg`oqli, kema yurar daryolar» bu Amudaryo va Sirdaryo bo`lib, Avesto tasvirlagan mazkur shaharlar O`rta Osiyo shaharlarining bu ikki daryo qirg`oqlarida joylashganlaridir. Shunga asoslanib, biz Zardushtning vatani, zardushtiylikning ilk makoni va Avestoning kelib chiqish joyi deb – Xorazm, tarqalish yo`nalishi deb – Xorazm-Marg`iyona-Baqtriyani ayta olamiz. Avestoning «Yasna» kitobida bayon etilishicha, Zardushtning vatandoshlari unga ishonmay, uning ta`limotini qabul qilmaganlar. Zardusht vatanni tark etib, qo`shni davlatga ketadi, u yerning malikasi Xutaosa va shoh Kavi Vishtaspaning xayrixohligiga erishadi. Ular Zardusht ta`limotini qabul qiladilar. Natijada qo`shni davlat bilan urush boshlanib, Vishtaspa g`alaba qozonadi. Shundan so`ng bu ta`limot xalqlar o`rtasida keng tarqala boshlagan. Keyingi davr rivoyatiga ko`ra, Shoh Kavi Vishtaspa farmoniga bilan Avesto kitobi o`n ikki ming mol terisiga yozib olinib, otashkadaga topshirilgan.

Avestoning tarkibiy qismlari. Avesto zardushtiylik muqaddas kitoblarining majmuidir. U – murakkab to`plam. Avestoning saqlanib qolgan to`rtta kitobidan birinchisining nomi «Videvdat» (vi-dayevodatam – «Devlarga qarshi qonun») deb ataladi. Ushbu kitob Avestoning saqlanib qolgan kitoblari orasida eng mukammali hisoblanadi. U yigirma ikki bob bo`lib, boblari fragard deb nomlangan. Fragardlarning ma`nosi, vazifasi, uslubiy tuzilishi turlicha: birinchi fragard – odamlar yashaydigan barcha yurtlarni Axura-Mazda qanday yaratgani to`g`risida bo`lib, ular orasida Xorazm, So`g`d, Marg`iyona, Baxdi (Balx) va boshqalar bor; ikkinchi

fragardda Jamshid podsholigi – kasallik, o`lim, azob-uqubatlar bo`lmagan zamon haqida, ya`ni insoniyatning oltin asri haqida gap boradi; uchinchi fragard dehqonchilikning savobli sharofatlari va h.k. haqida. Shuningdek, Videvdatning boshqa fragardlaridan Zardusht bilan Axura-Mazdaning savol-javoblari va muloqotlari ham o`rin olgan. Ikkinchi kitob «Yasna» deb atalib, Avestoning e`tiborli bo`limi sanaladi. Yasna – yaz o`zagidan bo`lib, «sajda, topinch, namoz» ma`nolarini ifodalaydi. Yasna 72 bobdan iborat bo`lgan. Boblari ha, haitiy deb atalgan. Har bir ha zarur o`rniga qarab marosimlarda, ibodatlarda koinlar tomonidan o`qilgan, qavmlar unga ergashib ibodat qilganlar. Yasna kitobi (nask) tarkibiga Zardusht o`zi ijod qilgan targ`ibot she`rlari ham kirgan. Ular Yasnaning 28-34, 43-46, 47-50, 51, 53 – jami bo`lib, 17 ta hasini tashkil qiladi. Zardusht she`rlari ilmiy adabiyotda gatalar deb atab kelinadi. Ha «bashorat» demakdir. Yasnaning 35-42-halari ayniqsa, yuksak qadrlangan. Bu yetti haHaptanxati Yasna – «Yetti bob Yasna» deb nomlangan. Ular orasida olovning muqaddasligi haqida bob bo`lib, zardushtiylik urf-odatlar orasida olovga e`tiqod qilish, dinning esa «otashparatslik» deb atalishi shunga bog`liq. Binobarin, olov Axura-Mazda nurining quyoshda namoyonligi va uning yerdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat Arta ham olovda o`z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg`onni rotsdan ajratib bergan. Yolg`on esa chin e`tiqodga xiyonat deb qoralangan. Arta so`zi fonetik o`zgarib, datslab atar, hozir esa otash shaklida ishlatilib kelmoqda. Uchinchi kitob «Vispered» deb nomlangan. U 24 bobdan tashkil topgan va har bir bob alohida karde deb atalib, ma`budlar sha`niga o`qilgan duolar va ibodat utsida ularga murojaatlar hamda olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig`indisi ham deyishadi. Ayni paytda u Yasnaga qo`shimcha hisoblanadi. To`rtinchi kitob «Yasht» (gimn) deb ataladi. U Avestoning eng qadimiy qatlami bo`lib, 22 bobdan iborat. Har bir bob Axura-Mazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma`lum vazifalarini bajaruvchi ma`budlar sha`niga aytilgan madhiyalardan iborat. Avestoning bizgacha yetib kelmagan

kitoblaridan ba`zi qismlari uning yig`ma parchalar to`plami «Xo`rdak Avesto» kitobida jamlangan. Masalan, Exrpatatsan kitobidan mo`badlar (kohinlar) uchun qonun-qoidalar, diniy boshqaruv tizimiga xos ma`lumotlarga oid qismlari, Nirangatsan – diniy-mavsumiy, ijtimoiy marosimlar tartib-qoidalari qismi, 20-naskda jonning u dunyodagi ahvoli haqidagi qismi va boshqalar shu kitobda saqlangan. Avesto haqida eng muhim manba IX asrga oid «Dinkard» (din amallari) asaridir. Unda Avestoning 21 kitobi to`la ta`riflab berilgan. Bu ta`riflar savobli ishlar yo`riqnomasi, diniy marosimlar va rasm-rusumlar qoidasi; zardushtiylik ta`limoti asoslari; dunyoning Axura-Mazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug`ilishi va bolaligi; haq yo`lini tutish; jamiyat a`zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o`qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir. Zardushtiylik dini haqida frantsuz olimi Anketil-Dyuperron juda qimmatli ma`lumotlar qoldirgan. Masalan, Anketil-Dyuperron 1755 yilda Hinditsonga ilmiy safar qilib, u yerdagi zardushtiylar orasida uch yil yashagan, ularning ibodatlari, urf-odatlarini yaxshi o`rgangan va Avestoni frantsuz tiliga tarjima qilgan. Uch jildlik tarjima 1771 yilda nashr etilgan. Ayni paytda, shuni ham ta`kidlash joizki, olimlarimizning fikricha, Avesto G`arbiy Yevropa, Eron va Hinditson tillari orqali bizga yetib kelgani uchun undagi nomlar, atamalar aksariyat hollarda asliga to`g`ri kelmaydi. Avestoda turkona jihatlar kam qolgan. Zartushtiylikni o`rganish hozirgi kunlarda ham faol olib borilayapti. Ta`kidlash kerakki, bu sohadagi tadqiqotlar O`zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy qadriyatlar va ko`p qatlamli diniy tajribada mazkur dinning tutgan o`rni beqiyosdir.

3. AVESTODAGI REAL, DUNYOVIY QADRIYATLAR.

Bu kitobda juda ko'p g'oya, fikr, tavsiya, o'gitlar bor bo'lgani uchun biz faqat real, haqiqiy hayotga dunyoviy munosabatlarga tegishli hozir ham talabalar uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan masalalar ustida to'xtaymiz.

Avestoning asosiy g'oyalari olamdagi barcha tartiblar, ezgulik (yaxshilik) va yomonlikdagi, ziyo va zulmat, hayot va o'lim o'rtasidagi kurashga bog'liq; dunyodagi barcha ezguliklarni Ahuramazda, yomonliklarni Ahriman ifodalaydi; bu kurashda odam oliy kuchlar ihtiyoridagi o'yinchoq emas, u tanlash erkinligiga ega, u o'z g'ayrati bilan bu dunyoda adolat topishiga ta'sir eta oladigan kishidir. Demak, hozir ham kimki, o'zini ilohiy kuch qo'lidagi qo'g'irchoq hisoblamasa, o'ziga biror kasbni tanlab olsa, g'ayratli bo'lsa, adolatsizlikka duch kelsa unga qarshi kurasha oladigan inson bo'lib yetishishlari shart.

Avestoda u zamonlarda keng tarqalgan ko'chmanchilik qoralanib, dehqonchilik ezgulik sifatida rag'batlantirilgan. Bundan xulosa chiqarib, hozir ham har bir odam hech bo'lmasa bir tup mevali daraxt, gul, sabzavot eksin, o'ziga mevasi nasib etmasa farzandlariga, bechoralarga nasib etadi, savob bo'ladi. El rahmatlar aytadi.

Avestoda to'rt element suv, olov, tuproq, havo g'oyat ulug'langan; bularni asrash, avaylashga da'vat etilgan. Uning tarbiyaviy ahamiyati hozir ham katta. Bunga amal qilib, har bir ongli, aqlli vatanparvar, xalqparvar, yoshu-qari tomchi suvni ham isrof qilmasligi, energiya, hayot manbai olovini, demak gazni, ko'mirni, neftni, o'tinni asrashi; tuproqni iflos qilmasligi, erroziyaga ya'ni nurash, sho'rlanishga yo'l qo'ymasligi; havoni esa pokiza saqlashi, ekologik xalokatga uchratmasligi ham qarz, ham farz.

4. "AVESTO" VA QADIMIY DEHQONCHILIK AN`ANALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR.

Tarixdan ma`lumki, insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi markazlari paydo bulishi va rivojlanishida dehqonchilik madaniyati muhim omil bo`lgan. Dunyo sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan biri bo`lgan Sharqda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi sug`orma dehqonchilikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Bu borada aytish joizki O`rta Osiyo zaminidagi eng qadimgi dehqonchilik madaniyati Joytun madaniyati bo`lib melodgacha bo`lgan 6-4 ming yilliklarda shakllanganligidan dalolat beradi.

Dehqonchilik tarixini o`rganish tarixning turli boskichlarida halqlarning ijtimoiy-iktisodiy tizimini va ishlab chikarish kuchlari rivojlanishini xujalik-madaniy tiplar tarixi muammolarini ilmiy tahlil qilishda royat muhimdir. Qadimga dehqonchilik madaniyati, an`anaviy dehqonchilik xujaligi va u bilan bog`liq marosimlar hamda agrar kultlar tarixchi, arxeolog va etnolog olimlar uchun doimo dolzarb va qiziqarli muammolardan biri bo`lib kelgan va bu borada mutaxassislarining olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida ma`lum amaliy natijalarga ham erishilgan.

Ayniqsa bu borada O`zbekiston xududidagi dexqonchilik va dehqonchilik madaniyati tarixi, sug`orma dexqonchilikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda u bilan borliq bo`lgan urbanistik jarayonlar doimo dolzarb muammolardan xisoblangan. Inchunun Vatanimiz xududidagi eng qadimgi dsxqonchilik madaniyati tarixi, dexqonchilik marosimlari va ularning genezisini tadqiq qilishda o`tmish ajdodlarimiz turmush tarzini o`rganixda, tarixiy jarayonlarni rekonstruksiya kilishda hamda halqimizning qadimgi davlatchilik an`analari va mintakadagi qadimgi urbanistik jarayonlarni ilmiy-asosli tarzda o`rganixda muhim ahamiyatga ega.

Bu borada jaxon fanida boy tajriba tuplangan bo`lib nemis folklorshunosi V. Mannxardt tomonidan ilk bora dehqonchilik bilan turli afsonalar va obrazlarda usimliklar olamining jonlaniish sirlari namoyon bulishi muammosi ilgari surilgan. V. Mannxardtning ta`kidlashicha, marosimlar va kultlar asosida inson tabiatdagi barcha boshka mavjudotlar kabi usimliklarda yashaydi degan qarash mujassamlashgan. Olimning fikricha, ruxning usimlikka evrilishi tug`risidagi mifologiya quyi mifologiya yukori iloxdar tug`risidagi mifologiyaga asos bo`lgan va aynan quyi mifologiya o`ziga xos yashovchan bo`lgan hamda uning izlari dehqonchilik marosimlarida yaxshi saqlanib qolgan.

Mashxur ingliz tadkikotchisi J. Frezer Mannxardt materiallariga suyangan xolda qadimiy agrar diniy dunyoqarashga oid manzarani qayta tiklagan va uning rivojlanish boskichlarini kursatgan hamda antik kultlar madaniyatning turli rivojlanish boskichlarida oralik bug`in tarzida ahamiyatta ega deb ta`kidlagan. Qolaversa etnolog olim tarixiy-taqqoslash usuli asosida ilk mifologik qarashlar va rituallar bilan Yevropa halqlarining dehqonchilik marosimlarining o`zaro bog`liqligini kursatib berishga xarakat kilgan .

Darhaqiqat dehqonchilik an`analari qadimiy ildizlarga bog`lanishi bilan birga o`ziga xos marosimlarga ham ega bo`lgan. Har bir dehqonchilik mavsumida aynan bir vakt takrorlanuvchi ish jarayoni turli an`ana va urf-odatlarini shakllanishiga sabab bo`lgan.

Biz quyida mintakamizdagi dehqonchilik madaniyatining ilk ko`rinishlari va rasm-rusumlarini yozma manbalar, jumladan, zardushtiylarning mukaddas kitobi "Avesto" malumotlari asosida taxlil kilishga hamda ularning o`zbek halqi an`anaviy dehqonchilik marosimlari bilan uyrunligini kursatishga xarakat kilamiz4.

Ma`lumki, "Avesto"da ilk dehqonchilik va chorvachilik madaniyati bilan bog`liq ijtimoiy tartib qoidalarga oid qarashlar va turli-tuman marosimlarga ham keng urin berilgan. Jumladan, mazkur manbada

dehqonchilik bilan chorvachilikni yaratgan zot Axura Mazda nazdida eng ma`kul ish tarzida madx kilinadi. Ayniksa, dehqonchilikka oid mexnatni xurmat kilish, sevish va kadrlash ta`kidlangan. Shundan kelib chikib zardushtiylik axlokiy qarashlari bevosita dehqonchilik dehqonlar va chorvadorlar axlokiy dunyoqarashini aks ettiradi.

Dehqonchilikning yaxshi tomonlari Zardushtning ikkinchi farzandi Arvatatnara obrazida mujassamlashgan. Unga xos xususiyatlarga konunga va ijtimoiy tartibga itoat kilishlik hamda sabr-bardoshlilik kirgan. Shuningdeq mazdaparastlar tasavvuriga kura olamdagi birinchi dehqon Arvatatnara xisoblanadi. "Vendidod"ning 2-fargard, 42-bandida qayd etilishicha, Yimaxshayati (Jamshid) bunyod etgan var axli orasida Zardusht va Arvatatnara eng buyuk va eng donodir. "Bundaxishn"da keladi: "Arvatatnara dehqonlarning ulug`i edi, endi Jamshid bunyod kilgan varning buyugiga aylandi⁵. Shu urinda aytib utish joizki, zardushtiylik an`anasiga kura Arvatatnara abadiy zotlar sirasiga kirgan.

"Avesto"ning juda kup urinlarida xosildorlikni oshirishdagi asosiy omillardan biri yerning zaxini qochirish, shurini yuvish deb maslaxat beriladi. Zardushtiyalarda yaxlit bir agromadaniyat yaratish uchun maxsus irrigatsiya tizimi va yer maydonlarini jamoa a`zolari o`rtasida tartibli taksimlanishiga amal kilingan. Shu urinda aytib ugish kerakki jinoyat uchun odamlarga beriladigan jazo turlari ichida suv inshootlari kurishda majburan ishlatish chorasi ham bo`lgan (bu og`ir jismoniy mexnat xisoblangan). Bu davrda yer jamoa mulki bo`lgan bulsa-da chorva xususiy mulk bo`lganligini "Avesto"dan kurishimiz mumkin.

"Avesto"da dehqonlarni vastriofishuyant deyilgan. Bu so`zning etimologiyasiga nazar tashlasak zardushtiyalar ajdodlarining an`anaviy kuchmanchi mashg`uloti — chorvachilik bilan bog`lik juda qiziq bir manzaraning guvoxi bulamiz. Avestoshunos olim A. O. Makovelskiyning yozishicha, "vastriofishuyant" iborasi yasalishiga kura murakkab so`z bo`lib uning birinchi tarkibiy kismi yirik shoxli koramol chuponi, ikkinchi qismi

esa mayda shoxli chorva chuponi ma`nolarini bildirgan. Ushbu ikki so`zning kushilishidan keyinchalik dehqon so`zi paydo bo`lgan"⁶.

"Vendidod" va "Visperad"ning aloxida qismlarida yerga ishlov berish, ekin ekish, yerning meliorativ xolatini yaxshilashga oid qator yul-yurikdar bayon qilingan. Jumladan, "Vandidod"ning uchinchi fargardi, 4-bandida Zardushtning Axura Mazdaga qarata "zamini hammadan kura baxtiyorrok bo`lgan dunyodagi uchinchi joy qayr?" — degan savoliga javob tariqasida Axura Mazda: "Ey Sipiytmon Zardusht! Bunday joy bir Ashavan hammadan kura kuprok bug`doy, yog` va mevali daraxtlar ekkan, odamlar kuruk yerlarga suv chikargan, suvli yerlarni shudgor kilgan zamindir"⁷ deb javob bergan. Shuningdek "Vendidod"da ta`kidlanishicha, o`zok vakt ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu kiladi. Bunday zamin balog`at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir. Bu oila kurish, kiz farzand kurishni xoxlagani singari, xaydalmagan yer ham kushchini kutadi"⁸.

Halqimiz dunyoqarashi va dehqonchilikka oid an`anaviy xujalik mashg`ulotida xozirgacha ushbu qarashlar bilan bog`liq ayrim ko`rinishlar saqlanib qolgan bo`lib buni bevosita etnografik ma`lumotlar ham tasdiklaydi. Jumladan, o`zbeklarda yerni xaydash, uni ekishga tayyorlash, suv keltirish, zamin bag`rida yetishtirilgan xosilni yigib olish savob, dehqonchilik eng sharaflil mashg`ulot hisoblanadi. Ayniksa, dehqonchilik mavsumini boshlanishi o`ziga xos tantana tarzda nishonlangan bo`lib, XX asrning birinchi choragigacha respublikamizning kator mintakalarida baxorgi shudgor oldidan "is chikarish" marosimi utkazilgan. Xar bir oilada ayollar bug`irsoq cho`zma ("is") pishirishgan. Qozonda moy yaxshi kizitilib, sungra unga hamir tashlangan. Guyoki, marxumlar shu moy kizishini eshitib, ruxdari shod bulishib, karindosh-urug`larga omad tilashadi. Yerni xaydashdan oldin xukizlarning shoxlari va buynturig`ini yog` bilan moylaganlar¹⁵.

Xukizlarni yomon ko`zdan asrasin, deb tumorlar taqilgan. Keksalarning ta`kidlashlaricha, mazkur odat zaminida uning shoxlari moylanib, bakuvvat bo`lgan xukiz yil buyi xormay-tolmay ishlasin, - degan magik niyat mujassamlashgan. Dastlabki egat olish yoki urug` sepishni oila yoki qishloqdagi xurmatli keksalar boshlab berishgan.

"Avesto"da yozilishicha, "kimda-kim bug`doy eksa, u Ashaxni (Haqiqat) ekadi. U Mazda dinini yana va yana kukartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamdu sano, nazru niyoz va o`n minglab kurbonliklar kuvvatlantirgandek kudratli kiladi. Qachonki egatlarda urug` yetilsa, devlar urinlaridan ko`chadilar. Qachonki bug`doy gurkirab kukarsa devlar dahshatlardan titray boshlaydilar. Qachonki bug`doy un bulsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug`doy xirmonga uyulsa, devlar nobud buladilar. Qay bir xonadonda bug`doy bosh chikarsa u xonadonga devlar yakinlasha olmaydilar. Qay bir xonadonda bug`doy ombori bulsa guyo qizdirilgan temir devlar buynini chirmab tashlaydi"⁹. Ko`rinadiki, "Avesto" paydo bo`lgan davrda g`alla ekish, don yetishtirish, umuman, dehqonchilik madaniyati yetarli darajada rivojlangan ekan.

Biz o`zbek halqining an`anaviy turmush tarzi bilan bog`liq qarashlar va marosimlarni ko`zatar ekanmiz, yer, don va nonga bo`lgan o`ziga xos xurmat-extiromni turli-tuman udumlar va marosimlarda hozirgacha saklanib kelayotganligini kurishimiz mumkin. Farg`ona vodiysi o`zbeklari orasidagi halqona qarashga kura bug`doy, olma, kovun, anjir va rayxon dastlab jannatda o`sgan. Shu bois ushbu usimliklar va mevalar doimo e`zozlangan. Ayniksa halq orasida yerga bug`doy sepish eng xayrli amallardan biri sanalgan va bug`doy ekilgan maydonlarni oyoq osti kilish gunoh xisoblangan. Kolaversa bug`doydan tayyorlanadigan taomlar ham aloxida kadrlangan. Jumladan, baxorda iliko`zildi paytida ayollar tomonidan namlangan bug`doyni kuklatib sumalak tayyorlash va qolaversa bir marta sumalak tayyorlangan uyda yetti yil mobaynida xar yili bir marta sumalak pishirish udumlari xozirgacha davom etib kelmokda. Shu urinda

halqimizning nonga boʻlgan xurmat eʼtiborini aloxida taʼkidlab utishimiz lozim. Asosiy xujalik mashgʻulotlaridan biri dehqonchilik boʻlgan oʻzbek halqida non azaldan asosiy va tansik isteʼmol mahsulotlaridan bulishi bilan birga non bilan bogʻliq kator marosimlar va urf-odatlar shakllangan. Jumladan, non hech qachon oyok ostiga tashlanmagan. Nonni bosish ogʻir gunox xisoblangan. Bundan tashkari kelinni kuyovnikiga koʻzatishda boshiga non quyish odati boʻlgan. Fargʻona vodiysi oʻzbeklari qadimiy odatga kura gʻalla somonini xech qachon oʻchoq va tandirga yoqishmagan. Chunki donni-nonni yokish ogʻir gunoh deyiladi 10. Axborotchilarimizning taʼkidlashlaricha, non bor joyga turli ins-jinslar va yovoʻz kuchlar yakinlashmas ekan. Shu bois yomon koʻzdan, yovuz kuchlardan asrovchi vosita sifatida, yangi tugʻilgan chakalokni yoki xatna kilingan bolaning yostigi ostiga boshka kator magik xususiyatga ega buyumlar bilan birga non quyilgan. Xorazmda non bulaklarini tumor kilib taqilgan va non uchun hamir tayyorlab quyilgan yerga (masalan, tandir oldiga) jin, parilar yakinlashmaydi deyiladi.

XX asr boshlarida oʻzbeklarda baʼzan ekinlar rivoji past boʻlib, xosil kam bulsa va bu xodisa ikki-uch bora qaytarilsa, bunday yerlarga odamlar salbiy nazar bilan qarashgan. Giyox unmaydigan yoki kam xosilli paykallarni «it tekkan yer» (ins-jins tekkan manosida), "xudo qargʻagan yer" deb nomlashgan. Xorazmda ulgan odamning jasadi tekkan yerni nopok yer deyilgan. Agar ekin ekiladigan yerda odam jasadi yoki uning suyaklari topilsa, bu joy xarom xisoblangan. Bunday yerni besh marta sugorgandan keyingina ekin ekishgan. Ayrim joylarda esa bunday srlarniig atrofini juyak olib urab quyishgan va ikki-uch yil davomida sugʻormaganlar, ekin ekmaganlar. Biz bu udumga aynan uxshash koʻrinishni "Avesto" kitobida uchratamiz. Zardushtiylarning "murdaning nopokligi" konsepsiyasiga kura zardushtiylik paydo boʻlgan dastlabki paytlarda tuprokning xolatini boʻzmaslik maksadida va murdani "marosimiy makrux" xisoblangani bois oʻlik yerga kumilgan. Murda odamlar nazaridan yiroqqa-baland tepaliklarga

eltib maxsus supalarga quyilgan. "Veididod"ning 7-fargardi, 7-bulimida Zardushtning Axura Mazdaga karata "oftob ostida yotgan odam jasadi yerga tushib ketsa, yer necha vakt dan sung o`zining pokizalik xolatiga qaytadi? — degan savoliga javob tarikasida "oftob ostida yotgan odam jasadi yerga tushib ketgan laxzadan bir yil utgach, zamin o`zining poklik xoliga qaytadi" — deb javob bergan. Boshka urinda Axura Mazda Zardushtga karata "odam jismi tuprokka topshirilgan laxzadan ellik yil utganidan sung zamin o`zining poklik xoliga qaytadi" — deb ta`kidlagan¹¹. Demak biz bundan halqimizning dehqonchilik bilan bog`liq kator urf-odatlarini kecha yoki bugun uylab topilmagan, balki o`zining kupning yillik tarixiga ega ekanligiga yana bir bor amin bulamiz. Fargona vodiysi o`zbeklarida yerga dastlabki ishlov berish, yani yil boshidagi dastlabki dehqonchilik yumushlari Navro`z tantanalari bilan bir vakt da boshlangan. Navro`z ayyomi dehqonlar uchun ayniksa ahamiyatli bo`lgan. Chunki yukorida aytganimizdek bu kunlarda ekin ekish, dala, bor yumushlari boshlangan. Dehqonlar, bog`bonlar va chorvadorlar ayozli kunlardan omon-esson chikib, baxorning issik kunlarini intiklik bilan kutib, katta dehqonchilik ishlariga jiddiy tayyorgarlik ko`rganlar, omoch-buyinturiklarni, molalarni sozlab, taxt kilishgan, otlar sovutilgan, aravalar to`zatilib ishga yarakli xolga keltirib quyilgan. Asosiy ishchi kuchi bo`lgan xukizlarni yaxshi parvarishlab, ularni yer xaydashga olib chikishgan. Shu bois ham o`rta asrlarda Buxoroda bu dehqonchilik bayrami "Navro`zi kishavorzon" — "dehqonlar bayrami" deyilgan¹². Zaxmatkash dehqonlar aynan ushbu kun qo`sh chikarib urug`ni yerga qadaganlar.

XULOSA

Xulosa kilib aytganda, o`zbek halqining dehqonchilik an`analari qadimiy tarixga ega bo`lib bundan 3000 yil mukaddam O`rta Osiyo zaminida dehqonchilik gullab-yashnagan va ajdodlarning asosiy mashg`ulotlaridan biri bo`lgan. "Avesto"da ta`riflangan va targ`ib etilgan eng ulug` kasb

dexqonchilikka oid urf-odat va marosimlar o`zining xayotiyligi va halqchilligi bilan aloxida diqqatga sazovordir. Ularda ijtimoiy tabaqaviy cheklanish alomatlari yo`q bo`lib tabiiy ehtiyojlar zaminida paydo bo`lgan va umumxalq manfaatlariga

xizmat qilgan. Bu urf-odat va marosimlar tabiat bilan o`zviy bogliq mehnat jarayoni hamda turmushning muhim voqealariga bag`ishlab nishonlangan va xalqning orzu-umidlarini ifoda etgan.

Avestoning hozirgi davr kishilari uchun ahamiyati shundaki, unda odamlar doim pokiza yurishga, badanni toza tutishga yomon kirdikorlar qilmaslikka; har qanday yovuz niyat va haqoratli asabbuzar so`zlarni aytmaslikka, ayollarni, jumladan qizlarni sevishga hamma sohada mo`tadil (optimal) bo`lishga da`vat etuvchi qoida da`vat, o`gitlar bayon etilgan.

Avestoning Gat qismida odamlar halol mehnat qilishga o`z qo`li hunari bilan moddiy ne`matni yaratishga, tayyorga ayyor, o`roqda yo`q, mashoqda yo`q xirmonda hozir, boqimanda, tekinxo`r bo`lmaslikka, bularga yo`l qo`ymay, binoanan yashashga da`vat etilgan. Bu da`vatlarni hozir ham foydasi katta.

Xulosa shuki, Avestoda diniy ko`rsatmalar haqidagi g`oyalar bilan birga real, dunyoviy hozir ham foydali, nasihat, tavsiya, cheklash, ta`qiqdash, rag`batlantirishga doir o`git va da`vatlar ko`p bo`lgan.

Xulosa shuki, zardushtiylikning o`zidan keyingi barcha dinlarga salbiy ta`siridan ko`ra ijobiy ta`siri ustun bo`lgan. Deyarli barcha dinlarga xos xususiyat bo`lgan insonlarni yetuklikka, ma`naviyati boy, axloq-odobli bo`lib tarbiyalashga intilish zardushtiylik dinining ham asosini tashkil qiladi. Bu ustunlik musulmonlar hayoti va faoliyatida ayniqsa e`tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., Sharq, 1998.*
2. Sulaymonova F. *Sharq va G`arb.—Toshkent. Fan, 1997.*
3. Avesto. *O`zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.) T.:2001.*
4. "Avesto"dan (tarj. M. Isoqov) *O`zbek tili va adabiyoti jurnali, 1999. №2-*
5. *Abu Rayhon Beruniy. Al-osorul-boqiya an-al qarunul-holiya.T.: 1969*
6. *H. Homidov. "Avesto" fayzlari. – T.: 2001*
7. *N.Rahmonov. "Avesto"ning paydo bo`lishi. "O`zbekiston ovozi" 2001, 26.*
8. *N. Rahmonov. "Avesto": Zamin, vatan demakdir. - "O`zbekiston ovozi" 2001, 25 sentabr.*
9. www.e-tarix.uz
10. www.ziyonet.uz

Sheraliyev Husniddin Kasb ta'limi yo'nalishi.